

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.31.2024.Ped.187.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXIMOVA GULARO IBRAGIMOVNA**

**SHIHOBIDDIN AS-SUHRAVARDIYNING FALSAFIY G‘OYALARI  
ASOSIDA TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARNI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Pedagogical sciences**

**Raximova Gularo Ibragimovna**

Shihobiddin as-Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda  
ma’naviy-axloqiy jihatlarni rivojlantirish metodikasi..... 3

**Рахимова Гуларо Ибрагимовна**

Методика развития духовно-нравственных качеств студентов  
на основе философских идей Шихабиддина ас-Сухраварди..... 27

**Rakhimova Gularo Ibragimovna**

Methodology for developing students' spiritual and moral qualities  
based on the philosophical ideas of Shihabiddin as-Suhravardi..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 57

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.31.2024.Ped.187.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXIMOVA GULARO IBRAGIMOVNA**

**SHIHOBIDDIN AS-SUHRAVARDIYNING FALSAFIY G‘OYALARI  
ASOSIDA TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARNI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped6168 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdpi.uz](http://www.samdpi.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xajiyeva Maksuda Sultanovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kiyamov Nishon Sadikovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Qurbanov Jasurbek Akmaljonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.10.2024.Ped.187.01 Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko‘chasi 166-uy.) Tel.: (99895) 826-82-12; e-mail: [devonxona@samdpi.uz](mailto:devonxona@samdpi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko‘chasi 166-uy.) Tel.: (99895) 826-82-12;.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonommasi).

**A.A.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**E.A.Abdumannotov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sh.Sh.Negmatova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Bugungi globallashuv jarayonlari kechayotgan dunyoda umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarni qadrlash bilan birga, mamlakat ichki hayotida yosh avlodning fikrlash doirasini kengaytirishga ham alohida urg‘u berilmoqda. Talaba-yoshlarda keng fikr yuritish malakasini rivojlantirish, ularning ichki dunyosini boyitish va axloqiy madaniyatini yuksaltirishda tarixiy tajribalardan foydalanish muhim omil bo‘lib, bu jarayon jamiyat taraqqiyotida ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirilib, maxsus tizim sifatida o‘rganilmoqda. Ayniqsa, ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya kabi rivojlangan davlatlarda Sharq mutafakkirlari va G‘arb atoqli olimlari tomonidan yaratilgan boy madaniy-ma’naviy meros asosida yoshlarning axloqiy-ruhiy jihatdan kamolotini ta’minlashning mazmuni, shakl va yo‘nalishlari chuqur o‘rganilmoqda.

Xususan, G‘arb olimlarining pedagogik qarashlarini o‘rganish bilan birga, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalarini ham tahlil qilish, ularni zamonaviy o‘quv jarayonlariga tadbiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu g‘oyalar yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirishda muhim o‘rin egallaydi va ushbu jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Talabalarni aqliy, axloqiy va ruhiy jihatdan rivojlantirishda Sharq allomalari merosidan samarali foydalanish yo‘nalishida hozirgi kunda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Buyuk ajodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik qarashlar yoshlarning ongida ijobiy tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik,adolat,komillik va ma’rifatga da’vat etuvchi pedagogik g‘oyalari hozirgi ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni yanada boyitadi.

Respublikamiz oliv o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonlariga Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini tatbiq qilish asosida talabalar tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari va ta’limiy omillarni aniqlash, ijobiy dunyoqarash bilan bog‘liq jihatlarni nazariy va amaliy tomonidan asoslab berish, shuningdek, bu merosning inson tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari va sharoitlarini tahlil qilish, pedagogik qarashlardan muntazam foydalanish yo’llari, metodlari va texnologiyalarini aniqlab, shu asosda zamonaviy model ishlab chiqish dolzarb zaruratga aylangan. Sharq olimlarining pedagogik qarashlarini chuqur o‘rganish va shu asosda yoshlar ongini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar” doirasida o‘zbek xalqining boy qadriyatlari hamda ma’naviy merosini asrabavaylash, uni ommalashtirish va rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligi belgilab qo‘yilgan”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagqi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-sonli “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlарини ташкил этиш то‘g‘risida”gi, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli “O‘zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-martdagqi PQ-2855-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni metodik, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

Respublikamizda Sharq allomalari pedagogik merosini o‘rganishga oid tadqiqotlar A.Xalikov, S.Kamolova, H.Aliqulov, X.Alimov, Sh.Axmedova, F.Axrороров, M.Bahodirov, S.Dusanov, A.Mallaboyev, T.Mirzayeva, G.Navro‘zova, G.Yunusova, H.Salomova, A.Meliboyev, M.Pazilova, K.Karimov, M.Xayrullayev, S.Nishonova, H.Homidov, R.Shodiyev, D.Baxriyeva, S.Evatov, Sh.Murtozayev, E.Zoirov, Z.Mansurova, F.Mirzayeva, F.Muzaffarov, Ya.Nurumbekova, N.Safarova, X.Yuldashevlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi (MDH) mamlakatlarida T.Lickona, R.A.Nicholson, K.A.Avetisyan, N.A.Antonova, I.B.Anyanova, A.A.Bodalyev, R.P.Milrud, N.B.Nachatova, T.A.Olxovaya, M.T.Stepanyans, I.M.Filshtinskiy, D.A.Knish, A.Krimskiy, Y.N.Kulyutkin, S.D.Smirnov, G.S.Suxobskaya, V.A.Belyayeva, M.K.Moysya, kabi sharqshunos olimlar Sharq allomalari merosidan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

Xorijlik olimlardan C.Addas, A.Çatak, H.Algar, A.Allen, A.Arberry, J.Baldick, S.Bashir, M.Bajwa, S.Rana, R.Baumeister, W.Clarke, M.Dahabi, G.Flügel, R.Gramlich, A.Hartman, M.Lunenberg, F.Korthagen, A.Swennen, D.Mele, Netton, E.Palmer, H.Ritter, A.Rizvi, W.Turner, O.Solis, D.Kincade, M.Manen, K.Brokelman, E.Bertels, Dj.Trimengem, V.Nirsha kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqot ishi

Urganch davlat universitetining 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi”ning 2.4-bandiga asosan “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlatni takomillashtirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarini rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon belgilangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti, Urganch davlat universitetining 647 nafar talabalari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishning pedagogik vositalari, metodlari hamda pedagogik jarayon modeli tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur dissertatsiya ishida qiyosiy va deskriptiv tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, differensiatsiya, tarixiylik va mantiqiylik pedagogik-sotsiologik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnama), pedagogik tajriba-sinov, matematik statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari ta’lim jarayonida kasbga loyiqlik, samarali muloqot, empatiya, differensiatsiya, halollik, namuna bo‘lish, samimiylilik, bilvosita muloqot kabi tamoyillarga deskriptiv jihatdan yondashish asosida aniqlashtirilgan;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarini rivojlantirish modeli ta’lim jarayonida talabalarning o‘zini anglash, axloqiy tanlovni ongli amalga oshirishga yo‘naltirilgan “ichki nur - bilim - amal - axloqiy tajriba” bosqichlari orqali ma’rifiy va ruhiy tajribani uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy jihatlarni rivojlantirish metodikasi ta’lim jarayoniga nur, ma’rifat va kamolotning o‘zaro bog‘liqligi asosida refleksiv tahlil, ma’naviy dialog, mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarini qiyosiy va invariant tadbiq etib diagnostik, integrativ va inkremental ta’lim vositalaridan foydalanish va adaptatsiya qilish imkoniyatlarini ochib berishni nazarda tutgan holda takomillashtirilgan;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish metodikasi samaradorligi talabalarning ma’naviy ong, axloqiy qadriyat va shaxsiy mas’uliyat darajasini aniqlash imkonini beruvchi “nurning ma’rifatga aylanishi” konsepsiysi asosida ishlab chiqilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya mezonzlari va indikatorlari tizimi bo‘yicha axloqiy refleksiya, o‘zini tahlil qilish va ma’naviy uyg‘onish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida aniqlashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirish vositalari, metodlarining ishlab chiqilganligi;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirish manbalari va mazmuni aniqlanganligi,

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli va uni tadbiq etish mexanizmlari hamda talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonzlarning ishlab chiqilganligi;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishga ilmiy-metodik tavsiyalar “Boshlang‘ch ta’lim pedagogikasi” darsligidagi 12-mavzu Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar tarkibiga Shihobiddin Umar Suhravardiyning falsafiy-pedagogik qarashlari rejasidan kiritilgan va “Umumiyy pedagogika va psixologiya” darsligidagi 2-mavzu Pedagogik ta’limotlar tarixi tarkibiga Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Shihobiddin Suhravardiy ilmiy merosi va didaktik qarashlari rejasidan singdirilib o‘z ifodasini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiq etilayotgan muammo tarixiy-falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv asosida o‘rganilib, tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalariga mos keluvchi usullar majmuasidan foydalanilgan. Tajriba-sinov jarayoniga jalb qilingan oliy ta’lim muassasalari soni yetarli darajada bo‘lib, olingan natijalar statistik ma’lumotlarga tayangan holda matematik-statistik jihatdan qayta ishlangan hamda mavzu bo‘yicha chop etilgan ilmiy ishlarga asoslangan. Statistik usullarning qo‘llanilishi natjalarning ishonchliligini ta’milagan.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishning nazariy asoslari, pedagogik-psixologik yo‘nalishlari, shart-sharoitlarining aniqlanganligi, Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishning mazmuni belgilab berilganligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirish metod va vositalari ishlab chiqilganligi, Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan

pedagogik jarayon modeli, uni tatbiq etish mexanizmlari hamda talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni shakllanganligini aniqlovchi mezonlarning takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalaridan talaba yoshlarni tarbiyalashda qo‘llashga doir tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy etish asosida:

Shihobiddin Suhravardiy falsafiy g‘oyalarining ta’lim jarayonida kasbga loyiqlik, samarali muloqot, empatiya, differensiatsiya, halollik, namuna bo‘lish, samimiylilik, bilvosita muloqot kabi tamoyillarini deskriptiv jihatlari ochib berilgan tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 333-178 raqamli “Umumiyy pedagogika va psixologiya” nomli darsligida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 6-sentabrdagi 333-sonli buyrug‘i). Natijalardan yoshlar uchun axloqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi zamonaviy kasbiy yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqishda keng foydalanilgan;

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy fazilatlarini rivojlantirish modeli ta’lim jarayonida talabalarning o‘zini anglash, axloqiy tanlovni ongli amalga oshirishga yo‘naltirilgan “ichki nur – bilim – amal – axloqiy tajriba” bosqichlari orqali ma’rifiy va ruhiy tajribani uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilganligiga oid xulosalar pedagogika yo‘nalishida “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” nomli darslik ichidagi mavzularga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrdagi 537-03-828-son ma’lumotnomasi). Natijalar yoshlar uchun axloqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi zamonaviy kasbiy yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqishda keng foydalanilgan;

Suhravardiyning falsafiy g‘oyalarini o‘qitishni ta’lim jarayoniga nisbatan qiyosiy va invariant tadbiq etishda diagnostik, integrativ va inkremental ta’lim vositalaridan foydalanish va ularni adaptatsiya qilish imkoniyatlari ochib berilganligiga oid xulosa va takliflaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining bir qator targ‘ibot dasturlarni amalga oshirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston teleradiokanal” davlat muasasasi 2024 yil 10 dekabrdagi 04/36-1269-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu yondashuvlar asosida amalga oshirilgan dasturlar Suhravardiy falsafiy g‘oyalarining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga egaligini isbotlab berdi. Shuningdek, ular milliy ta’lim va ma’naviy targ‘ibot tizimini boyitishga xizmat qilishini kuzatish mumkin.

Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy - axloqiy fazilatlarini rivojlantirish metodikasi samaradorligi talabalarning ma’naviy ong, axloqiy qadriyat va shaxsiy mas’uliyat darajasini aniqlash imkonini beruvchi “nurning ma’rifatga aylanishi” konsepsiysi asosida ishlab chiqilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya mezonlari va indikatorlari tizimi bo‘yicha axloqiy refleksiya, o‘zini tahlil qilish va ma’naviy uyg‘onish ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 333-178 raqamli “Umumiyy pedagogika va psixologiya” nomli darsligida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil

6-sentabrdagi 333-sonli buyrug‘i). Natijada mazkur yondashuvlar asosida tatbiq etilgan dasturlar Suhravardiyning falsafiy qarashlari faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham muhim o‘rin tutishini tasdiqlab, milliy ta’lim hamda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tizimini yanada boyitishga xizmat qilishini kuzatish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalardagi ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari chop etishga tavsiya etilgan 2 ta darslik, ilmiy nashrlarda esa 13 ta maqola 8 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, oltita paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiylajmi 150 sahifadan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natjalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natjalarning amaliyatga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar hamda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari**” nomli birinchi bobida shaxs dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va bu jarayonning xususiyatlari, Sharq allomalari tomonidan qoldirilgan pedagogik merosning yoshlar tafakkuri va ma’naviy olamini boyitishdagi tarbiyaviy roli yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarda axloqiy-ma’naviy jihatlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan aniq psixologik-pedagogik omillar, shuningdek, insoniyat tafakkurining ilg‘or yutuqlari misolida Sharq donishmandlarining ta’limiy qarashlaridan foydalanishning tarbiyaviy imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Unda, shuningdek, talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tarkib toptirish muhim ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj ekanligi asoslab berilgan. Bundan tashqari, mazkur bobda talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning nazariy asoslari, ularning asosiy funksiyalari, turlari, ifoda shakllari, maqsad hamda vazifalari keng yoritilgan.

Ma’naviy-axloqiy jihatlar orqali inson moddiy va ruhiy olamni, uning betakror xususiyatlarini anglaydi hamda o‘z ongida aks ettiradi. Shu sababli, bunday jihatlar insonni ruhlantiruvchi, harakatga undovchi ichki kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihatlar asosida inson o‘z xulqini axloqiy mezonlar bilan baholaydi va to‘g‘ri tanlov qilish imkoniga ega bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy sifatlar maqsadga

yo‘naltirilgan ta’limiy vositalar orqali rivojlanadi. Har bir inson ajdodlari tomonidan qoldirilgan ma’naviy va madaniy merosni o‘zlashtirish orqali o‘z shaxsiyatini boyitadi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida takomillashtirish ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb va bugungi kun yosh avlod uchun zarurdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarda nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki shaxsning ichki dunyosi, axloqiy me’yorlari va ruhiy barkamolligi uning jamiyatdagi faoliyati, kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, Suhravardiyning asarlari Avorif ul-maorif, Rashfun nasoyihi imoniyya va Kashful fidoyihi Yunoniyya, Rashfun-nasreh na aloi ul-taki, A’lom ul-hido va Aqidat arbob ul-taqvo, Nug‘bat-ul bayoni tafsiri Qur’on, Irshodul muridin va majduti-tolibin, Ar rahiql mahtum li zavqil uquli val fuhum, Risolat us-sayr vat tayr, Vasoya, Risolatu jazbil qulub ila muvasolati mahbub, Avroodus Suhravardi, Kitobul-futuvvat, Sunuhul-futuh bi zikri ruh, Risola fil-faqr, Xilyatun nosiq, Al-lavomul-g‘aybiyya va An-nikotuz-zavqiyya – ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun boy manba hisoblanadi.

Ushbu asarlar talabalarda ichki intizom, axloqiy barqarorlik, tafakkur va ruhiy poklikni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, Avorif ul maorif va Vasoya asarlarida inson qalbini poklash va ilmni axloqiy nurlanish orqali egallash yo‘llari, Kitobul-futuvvat va Sunuhul-futuh bi Zikri ruh esa ma’naviy fazilatlar va ijtimoiy axloqiy mas’uliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, Suhravardiyn falsafasi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini shakllantirish pedagogik jarayonni boyitadi va talabalarda quyidagi jihatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

Axloqiy barqarorlik va ruhiy intizom tufayli talaba ichki intizomni o‘rganadi, qalbini poklaydi. Ma’naviy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati esa ilmiy bilimlar bilan birga axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy mas’uliyat va jamiyatga moslashuv hissi talabaning jamiyatdagi roli, hamkorlik va axloqiy me’yorlarga moslashuvini oshiradi. Ruhiy barkamollik va kasbga layoqat sifatlari ulardagi kasbiy faoliyatda mas’uliyat, mehnatsevarlik va insonparvarlik fazilatlarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, Suhravardiyn asarlarining metodik yondashuvlari pedagogik jarayonda diagnostik, integrativ va inkremental tarzda tatbiq etilishi mumkin. Bu esa ta’limning amaliy samaradorligini oshiradi, talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni uyg‘un va izchil shakllantirish imkonini beradi.

Natijada, Shihobiddin Suhravardiyning falsafiy g‘oyalari asosida ma’naviy-axloqiy jihatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy zarurati nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishi, balki butun jamiyatning ma’naviy barqarorligi va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yoshlarning dunyoni idrok etishi ajdodlardan qolgan meroz hamda xalqning madaniy-ma’naviy va aqliy boyliklarini, insoniyat tafakkurining eng sara namunalarini egallash asosida shakllanadi. Har qanday davrda yangi avlod o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy-ruhiy qarashlar, ilmiy bilimlar, ma’lumotlar va g‘oyaviy fikrlarni o‘zlashtirgan holda ularni yanada boyitib, keyingi

avlodlarga yetkazib kelgan. Insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlari uzlusiz takomillashib boruvchi xususiyatga ega. U kishining madaniy-axloqiy qarashlarni anglash darajasini o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan usul va shakllar bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Shaxsning dunyoqarashi aqliy, hissiy va axloqiy bilish asosida takomillashadi.

Pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, o‘quvchilar o‘quv faoliyati bilan shug‘ullangan chog‘da ularning dunyoqarashida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu esa ularning amaliy ko‘nikma va faoliyatlarining rivojlanishiga olib keladi. Bunday didaktik qarashlar Sharq mutafakkirlarining ilmiy-merosida muhim o‘rin tutgan. Madrasalarda ustozlar ta’lim oluvchilarga chuqr bilim egallash va uni ezgulik yo‘lida qo‘llash zarurligini targ‘ib qilganlar. Shu sababli ajdodlarimizning dunyoqarashi markazida bunyodkorlik g‘oyasi mujassam bo‘lgan. Ezgu niyat va maqsadlarning shakllanishi esa, o‘z navbatida, insonni yaratuvchanlikka undaydigan yangi g‘oyalar tug‘ilishiga zamin yaratadi.

Insonning ma’naviy-axloqiy jihatları, ayniqsa axloqiy fazilatlar o‘zining muayyan maqsad va vazifalariga ega. Uning asosiy maqsadi shaxsni ezgu amallarga rag‘batlantirishdan iborat. Ma’naviy-axloqiy jihatlar yordamida inson moddiy va ma’naviy borliqni, uning o‘ziga xos jihatlarini o‘zlashtiradi va anglab yetadi. Shunga ko‘ra ma’naviy-axloqiy fazilatlar insonni rag‘batlantiruvchi, safarbar etuvchi kuchga ega. Ma’naviy-axloqiy jihatlar yordamida inson axloqiy xattiharakatlarini baholaydi va axloqiy tanlovni amalga oshiradi. Pozitiv dunyoqarash aniq didaktik vositalar yordamida rivojlanadi. Har bir shaxs ajdodlaridan meros bo‘lib kelgan ma’naviy-madaniy boyliklarni o‘zlashtiradi.

Ma’naviy-axloqiy jihatlar insonning sezgi, idrok va tasavvur qobiliyatları orqali uning dunyoqarashini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jihatlar orqali narsalar va hodisalar inson ongida aks etadi. Ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlik shaxsning ma’naviy-axloqiy yetukligining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Hayotiy dalil va asoslar insonning axloqiy fazilatlari poydevorini tashkil qiladi. Inson turli voqeа-hodisalar orasidagi bog‘liqliknı tushunish orqali o‘z axloqiy sifatlarini boyitishga erishadi. Shaxsning tafakkur jarayoni mustaqillik xususiyatiga ega bo‘lib, ushbu fikrlash davomida yuzaga kelgan mantiqiy xulosalar inson axloqiy fazilatlarida o‘z ifodasini topadi va uning ijobjiy fazilat sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Inson axloqiy jihatlarining darajasi uning kundalik faoliyati, hayotiy tajribalari, kuzatuvchanligi, tasviriy fikrashi hamda ideallariga tayanuvchi qadriyatlarda o‘z aksini topadi. Shihobiddin Suhravardiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy (1103–1166), Shayxontohur (XIII asr oxiri – 1355), Abduxoliq G‘ijduvoniy (1103–1179), Najmuddin Kubro (1145–1221), Bahouddin Naqshband (1318–1389), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1489), Xusayin Voiz Koshifiy kabi yirik mutafakkirlar o‘z pedagogik qarashlarida o‘quvchilarga bilim berish jarayonida turli uslub va yondashuvlarga alohida e’tibor qaratganlar. Ular ta’limning insonni bunyodkorlikka yo‘naltiruvchi kuch ekanini chuqr idrok etganlar. Zero, bu allomalarning ilmiy-pedagogik qarashlarida axloqiy va tajribaviy bilimlar inson ma’naviy-axloqiy kamolotining asosiy manbai sifatida talqin etilgan.

Ajdodlarimizning intellektual salohiyati ularning ilmiy merosi, bizgacha yetib kelgan pedagogik qarashlari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular o‘z pedagogik g‘oyalarini san‘at, huquq va axloq sohalarida yaratgan asarlarida mujassam holatda bayon etganlar. Mazkur asarlarda taqdim etilgan didaktik bilimlar shaxsning bilish faoliyati dinamikasini hisobga olgan holda tizimli ravishda shakllantirilgan. Ajdodlarimizning dunyoqarashidan kelib chiqqan bu ta’limiy qarashlar bugungi yosh avlod tafakkuri va ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ularning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Insonning jamiyat talablariga mos ravishda faoliyat yuritishi esa uning dunyoqarashida shakllangan madaniy qarashlar va stereotiplar bilan bevosita bog‘liqdir.

Ma’lumki, birinchi va ikkinchi Renessans davrlari (XII–XIV asrlar) davomida hozirgi O‘rta Osiyo hududida tasavvuf ta’limoti asosida bir qancha tariqatlar shakllangan. Suhravardiya, Yassaviya, Kubraviya va Xojagon tariqatlari shular jumlasidandir. Bu davr mutasavviflari va mutafakkirlari insonni ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surganlar. Ularning safiga Shihobiddin Suhravardiy, al-Hakim at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Ahmad Yassaviy, Abu Homid G‘azzoliy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmuddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Jaloliddin Rumiy, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy va Muhammad Zahiriddin Bobur kabi yirik allomalarni kiritish mumkin.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni shakllantirishda Shihobiddin Suhravardiy tomonidan ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar va tarbiyaviy vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir tomonidan yaratilgan badiiy-estetik va ilmiy-ommabop asarlar Avorif-ul maorif va Kitob ul futuvvat asarlari talaba-yoshlarda ma’naviy-axloqiy qarashlarning shakllanishida muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu asarlarda shaxsni ma’naviy-axloqiy, madaniy va estetik jihatdan yetuk inson sifatida tarbiyalashga doir asosiy konsepsiylar va model yondashuvlar mujassamlashtirilgan.

Shihobiddin Suhravardiy o‘zining hayoti, ijodiy faoliyati hamda falsafiy-merosida shakllangan axloqiy-ma’naviy jihatlarni yuksak qadriyat darajasida baholab, ularni keyingi avlodlarga ruhiy-ma’naviy meros sifatida qoldirgan. Shu sababli uning ta’limotida shakllangan ushbu fazilatlar tarixiy-madaniy manbalar, badiiy adabiyotlar hamda didaktik meroslarda asosiy g‘oyaviy yo‘nalish sifatida talqin etiladi. Xususan, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi ko‘plab ijodiy asarlari sadoqat, fidoyilik, mehr-oqibat, poklik kabi insonparvarlik tamoyillari asosida yaratilgan bo‘lib, ular bugungi kunda ham yosh avlodning ma’naviy yetukligini ta’minalashda dolzarb manba vazifasini bajaradi. Ushbu asarlar yoshlarni ruhiy kamolot, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy ongning yuksak bosqichiga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish va ularda aks etgan fikrlarni chuqur tahlil qilish orqali ularning ezgu amallar mohiyatini anglash mumkin. Bu amallar orasida samimiyat alohida o‘rin tutadi. Samimiyat insonni ezgulikka undovchi yuksak ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, u sofdillik, sog‘lom tafakkur va teran aql-idrokning tabiiy ifodasidir. Samimiyat ijtimoiy munosabatlarda do’stlik va hamkorlikni mustahkamlovchi muhim omil bo‘lib

xizmat qiladi. Ana shu jihatlari bois, ota-bobolarimiz samimiyatga asoslangan do'stlikni oliv axloqiy mezon darajasida qadrlaganlar. Bu holat yozma adabiyot namunalarida ham, xalq og'zaki ijodi asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur asarlarning bosh qahramonlari ko'pincha fidoyi, sodiq va sirdosh do'stlar bilan birga tasvirlanadi. Bunday do'stlik timsollari yosh avlod uchun axloqiy ideal, ibratli namuna bo'lib xizmat qilgan. Ular bu qahramonlarga ergashgan, ularning xulq-atvori va do'stlik tamoyillaridan saboq olganlar. Bu esa samimiyatning tarbiyaviy imkoniyatlari naqadar beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Madrasalarda darslik va tarbiyaviy qo'llanma sifatida keng qo'llanilgan Shihobiddin Suhravardiyning "Avorif ul-maorif" (1236), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (1069–1070), Kaykovusning "Qobusnama" (XI asr), Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq", Sa'diy Sheraziyning "Guliston" (1258), Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" (1487) hamda Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" (1501) kabi asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularni ezbilikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilgan.

Mazkur asarlarda ilgari surilgan g'oyalar axloqiy tarbiyaning konseptual asoslarini belgilagan bo'lib, ular o'z davrida nafaqat madrasavyi ta'limning, balki ijtimoiy-ma'naviy tarbiyaning ham negizini tashkil etgan. Ayniqsa, bu asarlar orqali talabalarga halollik, vijdonlilik,adolat, kamtarlik, rahm-shafqat, sadoqat kabi fazilatlar ongli ravishda singdirilgan. "Avorif ul-maorif" asari hozirgi kungacha Eron, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Turkiya va Saudiya Arabistonidagi turli so'fiylik mazhablari vakillari uchun darslik bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur nodir manbalar bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida ham o'z ilmiy-tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Ular zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan holda talabalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularni ijtimoiy-madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyorlashda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Shihobiddin Suhravardiyning "Avorif ul-maorif" asari ta'lim, tarbiya va odob-axloq masalalarini o'zida mujassam etgan fundamental manbalardan biri hisoblanadi. Garchi asar tasavvufiy ruhda yozilgan bo'lsa-da, uning asosiy g'oya va mazmuni insonni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi axloqiy qadriyatlar tizimi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Insonning ma'naviy-axloqiy jihatlarini shakllantirish orqali uni ruhiy poklikka yetaklash, jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash g'oyasi Shihobiddin Suhravardiyning "Avorif ul-maorif", Al-Kalabodiyning "Kitob at-ta'arruf", Abunasr Sarrojning "Kitob al-luma'", Abu Tolib Makkiiyning "Qut al-qulub", Abdurahmon Sulamiyning "Risolat al-malomatiyya", Qushayriyning "Risola fi't-tasavvuf", Al-Hujviriyning "Kashf al-mahjub", Abdulloh Ansoriyning "Manozil as-soirin", hamda Fariduddin Attorning "Tazkirat al-avliyo" nomli durdona asarlarida chuqr va yorqin ifodasini topgan. Aynan shu boisdan ham bu asarlar o'z zamonasidagi ta'lim dargohlarida uzoq vaqt davomida asosiy manba va qo'llanma sifatida xizmat qilgan.

**Dissertatsiyaning "Talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik,

didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlarni shakllantirish jarayonida asosiy manba sifatida ko'zda tutilayotgan Shihobiddin Suhravardiya oid pedagogik qarashlar asosidagi manbalar tizimli ravishda tanlab o'rganildi. Shuningdek, ushbu jarayonning samaradorligini oshirish maqsadida ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan uslublar, vositalar, metodlar hamda ularni integratsiyalash imkonini beruvchi pedagogik model tavsiflandi va uning mazmun-mohiyati tahlil qilindi.

Ma'lumki, ma'naviy-axloqiy jihatlar sog'lom tafakkur va puxta aql-idrok mahsuli sifatida qaraladi. Axloqiy qadriyatlargacha ega bo'lgan shaxs, avvalo, atrofdagilarga, keng ma'nodagi jamiyat a'zolariga nisbatan bag'rikenglik, hurmat va ijobiy munosabat bildira oladi. U muayyan ijtimoiy guruhlarning diniy, milliy, madaniy mansubligi, e'tiqodi hamda shaxsiy qiziqishlarini qadrlaydi, ularni e'tiborga olgan holda o'z xulq-atvorini shakllantiradi. Bunday shaxs o'zining axloqiy qarashlariga mos keluvchi madaniy xulq-atvor namunalari asosida ongli harakat qiladi.

Shihobiddin Suhravardiy ta'limotida shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi pedagogik parametrlar, ya'ni aqliy-intellektual, axloqiy, ma'naviy va madaniy kamolot mezonlari aniq ifodalangan. Aynan shu jihatlari bilan mutafakkirning merosi bugungi kunda talaba-yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan didaktik yondashuvlarning nazariy asosini tashkil etadi. Shu bois, ushbu asar va ta'limiy qarashlarni zamonaviy oliy pedagogik ta'lim jarayoniga izchil va tizimli ravishda integratsiya qilish, ya'ni o'quv-modul tarkibiga bosqichma-bosqich singdirish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralishi lozim.

Alloma tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar va yondashuvlarni chuqur tahlil qilish va har tomonlama o'rganish natijasida aniqlanganki, buyuk mutafakkir inson shaxsida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor bilan yondashgan. Ko'zlangan maqsad yosh avlod qalbida ezbeglik, vatanparvarlik, halollik, bag'rikenglik kabi yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash orqali jamiyat barqarorligi va farovonligini ta'minlash bo'lgan.

"Avorif ul-maorif" da insonni komillikka erishishga undovchi bir qator muhim axloqiy va tarbiyaviy g'oyalar ilgari surilgan. Jumladan: shaxs xulqini takomillashtirish, komil odob, ezgu fazilatlar, ichki va tashqi madaniyatni uyg'unlashtirish, qalbning zohiri hamda botiniy poklanishi, o'zlikni isloh qilish, sahovat va go'zal xulq bilan ziynatlanish kabi masalalar alohida urg'u bilan bayon etilgan. Mutafakkir o'z pedagogik va axloqiy qarashlarini mustahkamlashda Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning siyrati va axloqiy fazilatlarini dalil sifatida keltiradi. Bu yondashuv asarning nafaqat diniy-tasavvufiy, balki didaktik va pedagogik ahamiyatini ham kuchaytiradi. Aynan shu jihatlari bilan "Avorif ul-maorif" yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirishda, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim manba vazifasini bajarishi mumkin.

Ilg'or pedagogik qarashlar va tarbiyaviy ta'limotlar barcha davrlarda shaxsning kasbiy, ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qilgan hamda jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, zamonaviy pedagogik jarayonda talaba-yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish dolzarb

vazifaga aylangan. Bu borada ko‘p asrlik milliy pedagogik merosni chuqur tahlil qilish, ularning talaba shaxsini kamol toptirishga xizmat qiluvchi jihatlarini ajratib olib, amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.


Bugungi globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida talabalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasi nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida ko‘rilmoxda. Buning uchun yosh avlodning hayotiy qarashlari, shaxsiy nuqtai nazarlari va ijtimoiy xulq-atvorlari o‘rtasida uyg‘unlikka erishish zarur. Ana shunday uyg‘unlik axloqiy kamolotning poydevorini tashkil etadi. Mazkur masalani samarali hal etish esa pedagogik fanlar tizimida, ayniqsa, “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Tarbiya” kabi fanlarning mazmun va yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni yoshlar ma’naviyatini shakllantirishga yo‘naltirishni taqozo qilmoqda. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan birga, amaliy pedagogik yondashuvlar va qadimiy ta’limiy manbalarni integratsiyalash zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shihobiddin Suhravardiyining ilmiy-ma’naviy merosi asosida talaba-yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda bahs-munozara metodidan foydalanish alohida didaktik ahamiyatga ega. Ushbu metod orqali talabalar mustaqil fikrlash, axloqiy muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va shaxsiy pozitsiyasini asoslash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bahs-munozaralar jarayonida talabalarda nafaqat axloqiy qarashlar, balki ijtimoiy faollik, tolerantlik va tanqidiy fikrlash ham rivojlanadi.

Shu bilan bir qatorda, pedagogik hamkorlik, suhbat, muloqot, dialog, evristik izlanish, imitatsiya kabi metodlardan foydalanish orqali ham talaba-yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning keng imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa, imitatsion vaziyatlar va rol o‘yinlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar axloqiy-psixologik tafakkurni faollashtirish, shaxsiy mas’uliyat va empatiya tuyg‘ularini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolot bosqichlarini izchil ketma-ketlikda yoritish mumkin. Avvalo, ma’naviy bilim darajasining shakllanishi milliy va diniy qadriyatlarni bilish, san’at, tarix va falsafiy qarashlarni anglash orqali boshlanadi. Keyingi bosqichda bu bilimlar axloqiy xulq-atvorda namoyon bo‘lib, odob, halollik, adolat hamda boshqalarga hurmat kabi sifatlar bilan ifodalanadi. Shundan so‘ng shaxsda ijtimoiy mas’uliyat kuchayadi: jamiyat hayotida faol ishtirok etish, tabiat va muhitga e’tiborli bo‘lish, voqealarga befarq qolmaslik kabi fazilatlar rivojlanadi. Bu esa ma’naviy-axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalariga o‘tadi to‘g‘ri fikrlash, yaxshilik va yomonlikni ajratish, murakkab vaziyatlarda me’yorlarga rioya qilish bilan belgilanadi.

Keyingi bosqich o‘z-o‘zini rivojlantirish, ya’ni ilmgaga intilish, kamchiliklarni anglash va ularni bartaraf etish, innovatsion fikrlashni shakllantirishdir. Shaxs bular asosida oila va jamiyatdagi rolini to‘g‘ri bajaradi, an’analar va qadriyatlarga hurmat ruhida yashaydi. Yana yuqori bosqich sifatida vatanparvarlik va milliy g‘urur qaror topadi davlat ramzlariga hurmat, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sish va milliy tadbirllarda faol bo‘lish orqali namoyon bo‘ladi. Jadval yakunida esa shaxs axloqiy o‘rnak bo‘lish darajasiga yetadi boshqalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, amaliy xatti-harakatlari bilan yosh avlod uchun namunaga aylanadi. (1-rasm).



**1-rasm. Talabalarda ma'naviy-axloqiy jihatlarni shakllantirish bosqichlarini amalga oshirish mexanizmlari.**

Suhravardiy ta’limotlariga tayanilgan holda talabalarda axloqiy jihatlarni rivojlantirishning quyidagi jihatlari modelda o‘z aksini topadi: ijtimoiy va kasbiy faollikni namoyon etish, kasbiy rivojlanishga doir ichki motivatsiyaga ega bo‘lish, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallahsga intilish, bilimlarni izchil va uzuksiz boyitishga tayyorlik, topshiriqlarni bajarishda intellektual faollik ko‘rsatish, faoliyatni samarali tashkil etish uchun mos algoritmlar va metodlardan foydalana olish, kasbiy o‘sishni ta’minlaydigan qo‘sishma bilim manbalarini topishga intilish.

Suhravardiyning pedagogik ta’limotlari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy jihatlarni shakllantirish natijasida kasbiy-shaxsiy faollik ko‘rsatkichlari ortadi. Axloqiy jihatlarga egaligini namoyon qilishga intilish, atrofdagilarga yordam ko‘rsatishga tayyor bo‘lish, pedagogik amaliyot davrida o‘qituvchilar bilan qadriyatli munosabatga kirisha olish, zarur vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish, tengdoshlari va atrofdagilar bilan hamkorlik o‘rnata olishda o‘z ifodasini topadi.

Talabalarda axloqiy jihatlarning shakllangani ularning kasbiy faoliyatidagi yondashuvlarida va atrofdagilar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Axloqiy jihatlarni egallah jarayonida talabalar Shihobiddin Suhravardiy merosini o‘rganish bilan bir qatorda, zamonaviy madaniy yondashuvlar va konseptual modellardan ham xabardor bo‘lishlari zarur. Bu esa o‘z navbatida, ularda milliy hamda umuminsoniy madaniy qadriyatlarni chuqur anglashga va ularni ongli ravishda o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan ichki motivatsiyani shakllantirishni taqozo etadi.

Talabalarda axloqiy jihatlarni rivojlantirish maqsadida oliy pedagogik ta’lim mazmuniga shu yo‘nalishga qaratilgan o‘quv materiallari va modullarini imkon qadar kengroq miqyosda kiritish, ularni doimiy ravishda boyitib, takomillashtirib borish zarur bo‘ladi.

Shihobiddin Suhravardiyning g‘oyalari asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy jihatlarni shakllantirish jarayoni “Fikrlashning olti shlyapasi” metodi orqali ifodalangan. (2-rasm)


Oq shlyapa (Ma’lumot va faktlar asosida yondashuv) Bu jarayonda Suhravardiyning hayoti, ijtimoiy-tarixiy davri, uning ilmiy merosi va axloqiy-falsafiy qarashlari faktlar asosida tahlil qilinadi. Talabalar Suhravardiy asarlari bilan tanishadi (masalan, “Avorif ul-maorif”). U insonning komillikka intilishi, nafsni poklash, sabr, halollik, taqvo kabi axloqiy sifatlarni qanday izohlagani o‘rganiladi. Axloqiy jihatlar tarixiy kontekstda qanday rol o‘ynagani baholanadi. “Suhravardiy fikricha, inson – qalbini poklash orqali haqiqiy bilimga erishadi.”

Qizil shlyapa (His-tuyg‘ular, sezgi va ichki kechinmalar) Bu bosqichda talabalar Suhravardiy g‘oyalariiga nisbatan o‘z hissiy munosabatini ifodalaydi. Suhravardiy inson qalbining yuksalishini nur bilan bog‘laydi – bu tushuncha talabada qanday tuyg‘ular uyg‘otadi? Talabalar ichki tozalik,adolat, sabr, vijdon haqida o‘z fikr va hislarini ochiq ifodalaydi. “Men Suhravardiyning qalb pok bo‘lsa, nur paydo bo‘ladi” degan g‘oyasini o‘qiganimda, o‘z qalbimni anglashga harakat qildim.”

Qora shlyapa (Taqnidiy fikrlash, ehtiyotkorlik) Bunda Suhravardiy g'oyalarni talabalarda shakllantirishdagi ehtimoliy kamchilik va to'siqlar baholanadi. Zamonaviy talabalarga tasavvufiy va falsafiy g'oyalarni tushuntirishdagi qiyinchiliklar aniqlanadi. Suhravardiy asarlarini noto'g'ri talqin qilish xavflari muhokama qilinadi. Axloqiy g'oyalarni faqat og'zaki emas, amaliyotga yo'naltirish zarurligi ta'kidlanadi. "Faqat nazariy bilim bilan chegaralansak, talabalar hayotda bu g'oyalarni qo'llay olmasligi mumkin."

Sariq shlyapa (Ijobiy tomonlar va imkoniyatlar) Bu bosqichda Suhravardiy g'oyalarning talaba axloqiy rivojlanishidagi ahamiyati aniqlanadi. Suhravardiy axloqiy mukammallikni eng oliy maqsad sifatida belgilaydi. Uning qarashlari orqali talabalar ichki intizom, ruhiy barqarorlik, poklik, samimiylilik kabi fazilatlarni rivojlantirishi mumkin. "Suhravardiy qarashlari talabaga ruhiy yetuklik sari yo'l ochadi – bu esa uning jamiyatda faol, halol shaxs bo'lishiga xizmat qiladi."

Yashil shlyapa (Ijodkorlik, yangi g'oyalalar) Bu bosqichda Suhravardiy g'oyalarni talabalar ongiga singdirishning innovatsion, ijodiy shakllari ishlab chiqiladi. "Ichki nur" mavzusida esse yozish, videorolik tayyorlash yoki rasm chizish. Suhravardiy asarları asosida mushoira, teatr, rolli o'yinlar tashkil qilish. Axloqiy tanlovlari, bloglar, "bir kun Suhravardiy nigohida" loyihasi orqali talabaning o'zini anglashiga imkon yaratish. "Har bir talaba o'z qalbida qanday nur borligini ramziy rasm yoki hikoya orqali ifodalasın."



